



MAMLAKATDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH BORASIDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Toshkent viloyati yuridik
texnikumi o'quvchisi
Jalolxo'jayev Azizxo'ja Nurillo o'g'li

Annotatsiya: ushbu maqolada huquqiy ong va madaniyat tushunchalari mohiyatan nimani anglatishiga bir qator misollar orqali tushuntiriladi, ilmiy adabiyotlarda huquqiy ongga ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida qaralishi va insonlarda huquqiy madaniyatni shakllatirish samaradorligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, bilim va ko'nikmalar, huquqiy bilim, tajriba, huquqiy hujjatlar.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyatini qaror topdirish shuningdek, erkin va farovon jamiyat barpo etish xalqimizning ustuvor maqsadlaridan biridir. Fuqarolik jamiyati – ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tayziqlardan holi bo'lgan hamda insonlarning xususiy turmush sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir.

Ushbu tuzum davlatdan mustaqil va undan holi munosabatlar va vositalar tizimi bo'lib, u shaxs hamda jamoalarning ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayot sohalaridagi xususiy manfaat va ehtiyojlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi. Fuqarolik jamiyati aksariyat hollarda insonlarning xususiy manfaat va ehtiyojlari sohasi tarzida ta'riflanadi. Fuqarolar huquq va erkinliklarining asosiy ko'pchilik qismi mana shu xususiy hayot sohasida ro'yobga chiqariladi. Biroq bu shaxslarning ijtimoiy hayotdan ajralib qolganligini, begonalashtirilishini anglatmaydi[1].

Bu maqsadga erishishga poydevor yaratuvchi muhim omillardan biri, shubhasiz, aholining huquqiy ong va madaniyatini oshirishda o'z aksini topadi. Shu bilan birga, har bir insonni Konstitutsiya va qonunlarga rioya ruhida tarbiyalash, boshqalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, jamiyatda hech kim o'zining huquqlari kamsitilgan sifatida his qilmasligi uchun olib borilayotgan ishlar kuchli mexanizm va aniq harakatlarni talab qiladi. Ushbu sohada so'nggi yillarda ko'plab ishlarni amalga oshirish bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish va ularni xalqimiz ruhiyatiga moslab talqin qilish zaruriy choralardan biri bo'lib xizmat qiladi. Xususan, davlatimizning rivojlanishi va boshlangan ulkan islohotlari o'z samarasini kutilgan darajada berishi tajribali va bilimdon yuridik kadrlar bilan bir qatorda, har jihatdan aholining yuksak huquqiy ong va madaniyatiga bog'liqdir. Qachonki har bir shaxs o'zining siyosiy-huquqiy faolligi, olib borilayotgan siyosatga nisbatan munosabatini ko'rsata olsa va bu ustuvor maqsadlarga imkon qadar o'z hissasini qo'sha olsagina buyuk maqsadlarga to'laqonli erishish mumkin.

Huquqiy ong va madaniyat tushunchalari mohiyatan nimani anglatishiga bir qator to'xtalib o'tsak. Ilmiy adabiyotlarda huquqiy ongga ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida qaraladi. U kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan g'oyalar, histuyg'ular, tasavvurlar yig'indisidir. Huquqiy



madaniyat esa kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishi tushiniladi. Bizda ham bu sohada bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda hamda ular o‘z ijobiy samarasini namoyon qilishni boshladi. Masalan, hozirgi globallashuv davrining ajralmas bo‘lagi hisoblanadigan ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlardir. Shulardan unumli foydalangan holda Adliya vazirligi o‘zining rasmiy veb-sayti hamda mas’ullar tomonidan tashkil etilgan “norma.uz”, “advice.uz” va shunga o‘xshash rasmiy internet saytlari orqali oddiy aholiga tushunarli bo‘lishini ko‘zlab yangi qabul qilinayotgan qonunlarga oddiy tilde sharh berib kelyaptilar. “Advice.uz” huquqiy axborot portali ishga tushirilib, bugungi kunda portal test rejimida faoliyat ko‘rsatmoqda. Mazkur portalda huquqiy ma’lumotlar ma’lum klassifikator asosida sodda tilda joylashtirilgan, ya’ni portal mehnat qonunchiligi, chetelda ishlash tartibi - migratsiya, pasport tizimi, oila munosabatlari, uy-joy, kommunal xo‘jalik, fuqarolar tadbirkorligi, ijtimoiy himoya masalalari, sog‘liqni saqlash, bank, soliq masalalari, transport sohasidagi qonunchilik, davlat xizmatlari, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, ta’lim qonunchiligi, sud-huquq masalalari, huquqiy himoya, majburiy ijro byurosi, nizolarni hal qilish, harbiy xizmat haqida huquqiy ma’lumotlar olish imkonini beradi[2].

Xorijiy tajribalarni o‘rganish barobarida bir necha qiziqarli modellarga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ularning eng yorqinlaridan biri “Street law” loyihasidir. Ingliz tilidan tarjima qiladigan bo‘lsak, “ko‘cha huquqi” ma’nosini anglatuvchi dastur orqali, huquqshunoslar, organ xodimlari va huquqiy savodxonligi yuqori bo‘lgan volontyorlardan tashkil topgan guruh orqali xalqqa o‘zlarini qiynab kelayotgan savollarga javob topishni, qonunchilik bilan ishlashning oddiy usullarini o‘rgatadilar. Bu dastur o‘z maqsadiga ko‘ra o‘quvchi yoshlarning ayniqsa, oddiy insonlarning huquqiy ongi va madaniyatini o‘stirishda beqiyos hissa qo‘shadi. Uning asosiy maqsadi – o‘quvchi yoshlarning hamda jamiyatdagi insonlarning amaliy tajribalari, talab va takliflarini organib chiqqan holda barchaga huquqiy bilim va ko‘nikmalarni berib borish. Hozirgi paytda G‘arb mutaxassisleri tomonidan, yoshlarning siyosiy dunyoqarashini: ularning siyosiy jarayonlarga munosabati, siyosiy qarash va qadriyatli yo‘nalishlarini keng miqyosda tadqiq etishni nazarda tutuvchi yetarli ilmiy-nazariy va amaliy materiallar to‘plangan.

Shuningdek, Yevropa davlatlarida va Amerikada yoshlarning siyosiy dunyoqarashi va huquqiy ongini o‘stirish butun jamoatchilikning qo‘lida. Masalan, Fransiyada 1879-yilda joriy qilingan maktablarda axloq va huquqning o‘qitilishi “fuqaro”, “mamlakat”, “askar”, “qonun”, “jamiyat”, “adolat” kabi va boshqa bir qator shunday so‘zlarning ma’nosini tushuntirib berishdan boshlangan. Bolalar 9-11 yoshdan huquq va qonun, to‘g‘rilik va yolg‘on kabi huquqiy tushunchalar bilan birga huquqiy qadriyatlarni bilish bilan birga unga amal qilish inson axloqining yuksakligi sifatida anglab tatbiq etishi ahamiyatli tajribadir.

Jamiyatning tub ildizlariga va rivojiga to‘sqinlik qiluvchi katta xavf bu – korrupsiya. Ushbu atama davlat xizmatchilari yoki mansabdor shaxslarning shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab pora evaziga sotilishidir. Nafaqat mamlakatimizda balki, dunyoning deyarli barcha



mamlakatlarning boshqaruv tizimida bu muammo ko'ndalang turibdi. Bizdan talab qilinayotgan vazifa esa ushbu muammoni bartaraf etish uchun qo'llanilayotgan choratadbirlar bilan bir qatorda, hali tatbiq etilmagan foydali mexanizmlarni kiritishdir. Shu maqsadda, Avstraliyada olib borilayotgan ishlarni kuzatsak.

Avstraliyada korrupsiyaga qarshi maxsus kurslar kurashadi. Bu yerda federal tuzilma yoki korrupsiyaga qarshi kurash organlarining markazlashtirilgan tizimi yo'q. Hukumat tuzilmalari faoliyatini nazorat qilish Avstraliya milliy jamoat tashkilotlari, parlament va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladi. Har qanday fuqaro bunday komissiyaga shikoyat qilishi yoki davlat mansabdor shaxslari tomonidan sodir etilgan korrupsiya harakati haqida xabar berish huquqiga ega. Bu yerda korrupsiyaga qarshi asosiy ta'lim dasturi Avstraliya Milliy universiteti (Kanberra) davlat siyosati fakultetida bo'lib o'tadigan "korrupsiya va unga qarshi kurashish usullari" mavzuidagi maxsus kursdir. Trening davomida tinglovchilar korrupsiya hodisasiga turli yondashuvlar va uning namoyon bo'lishiga qarshi kurash usullari bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar[3].

Avstriyada esa o'qituvchi sifatida ma'lum bir sanada o'quvchilarga huquqiy ta'lim berish maqsadida Adliya va Ichki ishlar organi xodimlari taklif etiladi. Avstriya federal korrupsiyaga qarshi kurash byurosi xodimlari 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun "Korrupsiyaga qarshi trening" loyihasini ishlab chiqadilar. Boshlang'ich loyiha shakli talabalar va ekspert-psixologlar, sotsiologlar, advokatlar, kriminologlar va o'qituvchilarning fikri bilan to'ldiriladi. Loyiha talabalarni korrupsiyaga qarshi kurashish va iqtisodiy jinoyatlar tushunchalari va korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, talabalarga korrupsiya bilan to'qnashuvda va fuqaroning ushbu hodisaga qarshi kurashishdagi roli to'g'risida xatti-harakatlar namoyish etiladi[4].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida sanab o'tilgan huquqiy ong va madaniyatni yuksaltiruvchi, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlovchi yoki korrupsiyaga qarshi kurashuvchi universal dastur mavjud emas. Shuning uchun har bir davlat o'zining ichki imkoniyatlari va qadriyatlaridan kelin chiqqan holda bunday modelni o'zi yaratadi. Shu yo'lda, boshqa xorijiy davlatlarda amalga oshirilayotgan ishlarni hamda ularning qanday natija berayotganini tadqiq qilish muhimdir. Ammo, ularni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olish yaramaydi.

O'z navbatida mamlakatimizda ham aholining huquqiy ongi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun quyidagilarni amalga oshirish foydadan holi bo'lmas edi.

birinchidan, aholi olib borilayotgan ishlar samarasiga bevosita guvohligini ta'minlash maqsadida, har bir ishda jamoatchilik nazoratini ta'minlash shuningdek, vujudga kelishi mumkin bo'lgan suiiste'molliklarni bartaraf etish maqsadida bu nazoratni kuchaytirish;

ikkinchidan, yoshlarga huquqiy ta'lim berayotganda, ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, maxsus dasturlar yaratish. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalarga sahna ko'rinishlari, multfilmlar yoki rang-barang suratlar tarzida kerakli ma'lumotlarni yetkazish;



uchinchidan, ommaviy axborot vositalari tizimida Adliya vazirligining hamda huquqiy savodxonlikni targ‘ib etuvchi idoralarning maxsus televizion kanalini tashkil etish va “huquqiy savodxonlik vaqti”, “Adliya kuni” va shunga o‘xshash targ‘ibotlar ko‘lamini yanada kengaytirish.

Yuqorida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish, shubhasiz, qilinayotgan ishlar rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Davlat va huquq nazariyasi: Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma/ X.T. Odilqoriyev, I.T. Tulteyev, M.I. Suvonqulov va boshq.; -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 336 b.

2. S.S. Juraev “Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda innovatsion usullardan va xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajibasidan foydalanish masalalari” Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sudhuquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari (Maqolalar to‘plami) / -Toshkent, “TOP IMAGE MEDIA” 2019. - 384 b.

4. G. To‘laganova, A. Tadjibaeva: “Jahon ahli korrupsiya bilan qanday kurashmoqda?” O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huquqiy gazetasi: “Inson va qonun”/ 11-fevral 2020-yil/ №05 (1209)

5. G. To‘laganova, A. Tadjibaeva: “Jahon ahli korrupsiya bilan qanday kurashmoqda?” O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huquqiy gazetasi: “Inson va qonun”/ 11-fevral 2020-yil/ №05 (1209)